

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJTIMOY KO'NIKMALARINING
SHAKLANISHISHIDA BILISH JARAYONLARINING TA'SIRI**

Tulayeva Dilafruz Muxiddinovna

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Psixologiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning shaxsiyati, dunyoqarashi, muloqot madaniyati va jamiyatda o'z o'rnini topishga xizmat qiluvchi ijtimoiy ko'nikmalari shakllanadi. Ijtimoiy ko'nikmalar bolaning tengdoshlari va kattalar bilan samarali muloqot qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, o'z his-tuyg'ularini boshqarish hamda ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda bilish jarayonlari hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutqning rivojlanishi bolalarning muloqotga kirishishi, hamkorlik qilishi, ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishi hamda jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: psixologik yondashuvlar, qobiliyat, kognitiv, vizual-tasavvur, nozik motorika, ijodiy ifoda qobiliyatlari, ijtimoiy moslashuvchanlik.

**ИЗУЧЕНИЕ ВЛИЯНИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ НА
ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО
ВОЗРАСТА**

Аннотация: Дошкольный возраст является одним из наиболее важных этапов развития человека. Именно в этот период формируются личность ребёнка, его мировоззрение, культура общения и социальные навыки, способствующие успешному определению своего места в обществе. Социальные навыки включают способность ребёнка эффективно взаимодействовать со сверстниками и взрослыми, осуществлять совместную деятельность, регулировать собственные эмоции и соблюдать социальные нормы. Познавательные процессы являются одним из ключевых факторов формирования социальных навыков у детей дошкольного возраста. Развитие восприятия, внимания, памяти, мышления и речи обеспечивает детям возможность вступать в коммуникацию, сотрудничать с окружающими, усваивать социальные нормы и успешно адаптироваться к обществу.

Ключевые слова: психологические подходы, способности, когнитивные процессы, визуально-образное представление, мелкая моторика, способности к творческому самовыражению, социальная адаптивность.

STUDY OF THE INFLUENCE OF COGNITIVE PROCESSES ON THE
FORMATION OF SOCIAL SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract: *Preschool age is considered one of the most important developmental stages in human life. It is during this period that a child's personality, worldview, communication culture, and social skills, which facilitate finding their place in society, are formed. Social skills encompass a child's ability to communicate effectively with peers and adults, engage in cooperative activities, regulate emotions, and adhere to social norms. Cognitive processes play a decisive role in the development of social skills among preschool children. The development of perception, attention, memory, thinking, and language enables children to engage in communication, collaborate with others, internalize social norms, and successfully adapt to society.*


Keywords: *psychological approaches, ability, cognitive processes, visual imagination, fine motor skills, creative expression abilities, social adaptability.*

Zamonaviy psixologiyada bolalarning erta yoshdagi ijtimoiy va kognitiv rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dunyo miqyosidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yosh bolaning ijtimoiy muhitga moslashishi, muloqot qobiliyatlari va bilim olish mexanizmlarining shakllanishi uchun eng sezgir davr hisoblanadi. XXI asrda global ijtimoiy o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi va oilaviy qadriyatlarining o'zgarishi bolalarning ijtimoiylashuv jarayoniga yangicha talablar qo'ymoqda. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ham ushbu sohada yangi psixologik yondashuvlarni talab qilmoqda. Ijtimoiy ko'nikmalar bolalarga boshqalar bilan munosabatlarida axloqiy jihatdan qimmatli xulq-atvor namunalarini o'rgatishni o'z ichiga oladi. Buning uchun muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash, hamkorlik qilish nizolardan qochish qobiliyati talab etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda **bilish jarayonlari** ta'sirini aniqlovchi metodikalar asosida o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari statistik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan metodikalar asosida olingan statistik ma'lumotlar maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda **bilish jarayonlari** ta'sirini o'ziga xosligini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotda jins xususiyatlari tafovutlari aniqlandi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda **bilish jarayonlari** ta'sirini o'rganganimizda, sinaluvchilarimizni jins xususiyatiga ko'ra o'g'il bolalar va qiz bolalar guruhiga ajratib olindi. Qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga asosan har bir shkalalarda turlicha natijalarga erishildi.

Biz tomondan o'tkazilgan tadqiqotimizda jami 64 nafar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar sinaluvchi sifatida ishtirok etishdi. Sinaluvchilar maktabgacha ta'lim tashkilotining maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari. Tadqiqotimizda ishtirok etgan

sinaluvchilarning 36 nafarini o'g'il bolalar, 28 nafarini qiz bolalar tashkil etdi. Jinslar nisbati 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Jins bo'yicha sinaluvchilar taqsimoti

Kolmogorov Smirnov bo'yicha tahlil natijalarining ko'p qismi normal taqsimlanish qonuniga mos kelmaganligi tufayli bizning tadqiqot ishimizda noparametrik mezonlardan foydalaniladi. Natijalar tahliliga ko'ra keyingi tadqiqot ishimizni Man-Uitni mezonni asosida izohlaymiz. Man-Uitni mezonida mazkur metodikalarning olingan natijalari asosida jinslar o'rtasidagi farqlar hamda ularning statistik ahamiyatlilik darajasi tahlil qilinadi. Man-Uitni U test ikki mustaqil guruhni solishtirish uchun ishlatiladigan parametrik bo'lmagan statistik usul bo'lib, u ko'pincha ma'lumotlar normal taqsimotga ega bo'lmagan hollarda qo'llanadi. Ushbu mezon statistik tahlilda juda muhim o'rin tutadi, chunki u oddiy o'rtacha qiymatlarga emas, ma'lumotlarning tartiblangan (rang) qiymatlariga asoslanadi.

3.7-jadval

Kern-Yirasek maktabga tayyorlikni aniqlash so'rovnomasining Mann-Uitni mezonni asosida jins tafovutlari tahlili (n=64)

Metodika shkalalari	O'rtacha rang		U	p
	Qiz bolalar n=28	O'g'il bolalar n=36		
Odam rasmini chizish	39.89	26.75	297.000	.004 **
Nuqtalarni ko'chirish	38.14	28.11	346.000	.025 *
Matnni ko'chirish	39.00	27.44	322.000	.011 *

Izoh: * $p \leq 0,05$ (95 %), ** $p \leq 0,01$ (99%)

Odam rasmini chizish shkalasi bo'yicha qiz bolalarning o'rtacha ko'rsatkichi (39.89) o'g'il bolalarnikiga (26.75) nisbatan sezilarli darajada yuqori ($U=297.000$; $p \leq 0,01$). Bu

ko'rsatkich qiz bolalarning vizual-tasavvur, nozik motorika va ijodiy ifoda qobiliyatlari yuqoriligini bildiradi. Bu ularning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo'lishi mumkin. Odam rasmini chizish orqali ular boshqalar bilan o'zaro aloqada bo'lish, hissiyotlarni ifodalash va ijtimoiy rollarni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Nuqtalarni ko'chirish shkalasida qiz bolalar (38.14) o'g'il bolalardan (28.11) ustunroqligini ko'rishimiz mumkin ($U=346.000$; $p \leq 0,05$). Bu ularning diqqatni jamlash, eslab qolish va vizual-motor faoliyatda aniqlikka intilish qobiliyatlarini ko'rsatadi. Bilish jarayoni orqali bolalar ijtimoiy vaziyatlarda o'zini tutish qoidalarini o'rganishi, boshqalarni tinglash va hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin, bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirishiga sabab bo'lishi mumkin.

Matnni ko'chirish shkalasi bo'yicha qiz bolalar (39.00) o'g'il bolalardan (27.44) sezilarli darajada yuqori natija ko'rsatdi ($U=322.000$; $p \leq 0,05$). Bu ularning diqqatni boshqarish, xotirani ishlatish va yozma ko'nikmalarini rivojlantirish qobiliyatlarini namoyon qilishi bilan izohlashimiz mumkin. Bilish jarayonlari maktabgacha yoshdagi bolalarning vazifalarni bajarish qobiliyati, ijtimoiy qoidalarni tushunish va tengdosh do'stlari bilan muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishiga sabab bo'lishi mumkin.

3.8-jadval

T.D.Martsinkovskaya tomonidan ishlab chiqilgan "Ikki uy" so'rovnomasining Mann-Uitni mezonida jins tafovutlari tahlili (n=64)

Metodika shkalalari	O'rtacha rang		U	p
	Qiz bolalar n=28	O'g'il bolalar n=36		
Ijobiy tanlov	37.45	28.65	365.500	.056
Salbiy tanlov	32.39	32.58	501.000	.967

Ijobiy tanlov shkalasida qiz bolalarning o'rtacha ko'rsatkichi (37.45) o'g'il bolalarnikiga (28.65) ni tashkil etdi ($U=365.500$; $p \geq 0,05$). Qiz va o'g'il bolalar ijobiy ijtimoiy tanlovlar ya'ni boshqalar bilan hamkorlik qilish, yordam berish va ijobiy munosabatda bo'lish vazifalarida jinsdan qat'iy nazar deyarli bir xil ekanligini bildirishi bilan izohlashimiz mumkin.

Salbiy tanlov shkalasida esa qizlar (32.39) va o'g'il bolalar (32.58) o'rtasida hech qanday sezilarli farq aniqlanmadi ($U=501.000$; $p \geq 0,05$). Bu ko'rsatkich bolalarning salbiy xulq-atvorining nizoli yoki qarama-qarshi vaziyatlarda o'zini tutish qobiliyatlari jinsdan qat'iy nazar deyarli bir xil ekanligini bildirishi bilan izohlashimiz mumkin.

3.9-jadval

E.O. Smirnovaning “Kema kapitani” so‘rovnomasining Mann-Uitni mezonida jins tafovutlari tahlili (n=64)

Metodika shkalalari	O‘rtacha rang		U	p
	Qiz bolalar n=28	O‘g‘il bolalar n=36		
To‘g‘ri tanlov	37.36	28.72	368.000	.063
Noto‘g‘ri tanlov	25.32	38.08	303.000	.005 **

Izoh: *p≤0,05 (95 %), **p≤0,01(99%)

To‘g‘ri tanlov shkalasida qiz bolalarning o‘rtacha ko‘rsatkichi (37.36) o‘g‘il bolalarnikiga (28.72) ni tashkil etdi ($U=368.000$; $p\geq 0,05$). Bu natijada ikkala jins vakillarida ham ahamiyatli farq kuzatilmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Noto‘g‘ri tanlov shkalasida qiz bolalar (25.32) va o‘g‘il bolalar (38.08) o‘rtasida sezilarli farq aniqlangan ($U=303.000$; $p\leq 0,05$). Ushbu ko‘rsatkich o‘g‘il bolalarning noto‘g‘ri tanlovlar qilishga moyilligini ko‘rsatadi, bu esa ularning ijtimoiy qaror qabul qilish jarayonlarida ba‘zan tashqi muhitga bevosita reaksiya qilish, impulsiv xatti-harakatlarga moyillik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Qiz bolalarning past noto‘g‘ri tanlov ko‘rsatkichi ularning vazifalarni tushunish, diqqatni jamlash va bilish jarayonlariga asoslangan ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda samaradorligini bildiradi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlari (diqqat, xotira, tafakkur, vizual-tasavvur va motor koordinatsiya) ijtimoiy ko‘nikmalarning shakllanishida muhim psixologik asos ekanligini ko‘rsatdi. Kognitiv rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan bolalarda ijtimoiy moslashuv va hamkorlik ko‘nikmalari ham barqarorroq rivojlanganligi aniqlandi.

Bilish faoliyati qanchalik rivojlangan bo‘lsa, bolaning ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, jamoada o‘z o‘rnini topishi va ijtimoiy hayot talablariga moslashuvi shunchalik muvaffaqiyatli kechadi. Demak, maktabgacha ta’lim tizimida bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli pedagogik ishlar bolalarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omili va barkamol shaxs tarbiyasining zarur sharti hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish hamda amaliyotga tatbiq etish kelajak avlodning intellektual va ijtimoiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar.

1. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. — М.: Просвещение, 2008. — 383 с.

2. Эльконин В.В. Возрастная периодизация детского развития. — М.: Просвещение, 2001. — 240 с.
3. G'oziyev E.G. "Ontogenez psixologiyasi" darslik,. Toshkent-2020
4. G'oziyev E.G "Umumiy psixologiya" darslik,. Toshent-2002
5. Лисина М. И. Проблемы онтогенеза общения. – М., Педагогика.2006
6. Nishanova Z.T., Alimova C.K. "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi". — Toshkent, 2017.
7. D.Muxamedova, G.Salomova "Psixologik tadqiqotlar ma'lumotlarini qayta ishlash metodlari va texnologiyalari". Darslik Toshkent-2020